

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi va "Samarqandyo'lko'kalam" unitar korxonasi orasidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarni ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha tuzilgan

SHARTNOMA № 18/2 M-AYK 2022

“31” 01 2022-yil

Samarqand shahri.

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi nomidan tashkilot nizomi asosida ish ko'ruvchi N.Sanaqulov, ikkinchi tomondan matnda keyingi o'rinda «Pudratchi» "Samarqandyo'lko'kalam" unitar korxonasi nomidan korxonani asosida ish ko'ruvchi A.Radjabov O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi tomonidan aniq manzilli yo'l ishlari ro'yxatida tasdiqlangan umumfoydalanuv mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 666-685-modalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-sentyabrdagi PQ 3262-son qarorlariga asosan ushbu pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. TA'RIFLAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

Ijro hujjatlari - joyida bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda yo'llarni ko'kalamzorlashtirish ishchi chizmalar va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar berkitilgan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar ishlarni bajarish daftarlari, yo'llardan foydalanish bo'yicha ko'rik jurnallari, yo'l va ko'priklar pasportlari, harakat jadalligi qaydnomasi va boshqa yo'llarga oid hujjatlar asosida ish yuritiladi.

2. SHARTNOMANING MAQSADI.

2.1. Buyurtmachi Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, "Samarqandyo'lko'kalam" unitar korxonasi umumfoydalanuvdagi mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'lining qatnov qismi, yo'l ko'tarmasi, sug'orish tizimi, sun'iy mustahkamlovchi himoyalash, boshqaruvchi inshootlar, yo'l jihozlari, dam olish joylari va tarixiy yodgorlikka borish yo'llari, kesib o'tish va chiqish yo'llari, qaytarish joylarda, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft ishlarini olib borish va uning barcha mol-mulkini O'zbekiston Respublikasi «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi harakatdagi qonuniga asosan «Pudratchi»ga avtomobil yo'llarni ko'kalamzorlashtirish ko'rsatish uchun topshiradi, Pudratchi esa tashkilot nizomida unga berilgan vakolatlar doirasida mazkur shartnoma majburiyatlarni bajarishni zimmasiga oladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3.1. Shartnoma bahosi 2022-yil I chorak vaqtinchalik tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan 238 419 000 (ikki yuz o'ttiz sakkiz million to'rt yuz o'n to'qqiz ming) so'mni tashkil etadi, keyingi choraklarda ajratiladigan qo'shimcha mablag'lar, xarajatlar smetasiga asosan belgilanadi.

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- avtomobil yo'llarni ko'kalamzorlashtirish ishlari, tizimdagi yo'l xizmatining Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi oldidagi majburiyatlari to'g'risidagi ko'rsatmalarga qattiq rioya qilish;

- barcha obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni buyurtmachiga topshirish;

- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi pudratchi korxonalar bilan shartnomalar tuzish, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchi korxonaning nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yo'l mintaqasini muhofaza qilish bo'yicha zarur, shuningdek tadbirlarni bajarilishini ta'minlash.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni o'z kuchi bilan yordamchi pudratchi korxonalar tomonidan zarur tarzda bajarilishi bo'yicha buyurtmachi oldida to'liq javob beradi.

4.3. Pudratchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda uch oy mobaynida surunkali belgilangan rejalarni bajarmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda intizomiy va moliyaviy chora ko'riladi.

4.4. Pudratchi ob'yektda bajargan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni buyurtmachi tomondan mazkur ob'jekt uchun birlashtirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 30 kunigacha ob'jektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni Samarqand viloyat AYBB ga topshiradi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan pudratchi tomonidan yo'llar atroflarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha va boshqa qabul qilingan majburiyatlar funksiyalariga rioya etilishini nazorat qilish,

- Pudratchidan yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

6. SHARTNOMANI BAJARISH MUDDATI.

6.1. Shartnoma 2022-yil "___" _____ 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

7. TO'LOV VA HISOB-KITOB SHARTLARI.

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini uchun moliyalashtirish jadvaliga muvofiq har chorakda, chorak hisobidan 40% avans to'lovi va qolgan oylardan avans chegirilib, qolgan to'lov amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish moliyalashtirilgandan so'ng ishlarni bajarish aktlari (F-3, F-5) asos hisoblanadi.

7.3. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

7.4. Buyurtmachi tomonidan Pudratchining bajarilgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha dalolatnomalar (F-3) ijro sxemalari va kerakli hujjatlari to'liq taqdim etilmaganda moliyalashtirish to'xtatib turiladi.

8. ISHLARNI BAJARISH.

8.1. Buyurtmachi avtomobil yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Agar Buyurtmachi Pudratchi va uning yordamchi pudratchi korxonalari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligi aniqlansa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan ta'mirlash qiymatini ko'paytirmasdan, ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

8.3. Ishlar boshlangan paytdan ular tugallanguncha Pudratchi yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini uchun ko'rik daftarini, ta'mirlashda ishlarni bajarish daftarini yuritadi, daftarda butun ishlarni borishi Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

- agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.4. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha-hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.5. Pudratchi Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni o'zaro belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarni qurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

9.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda,

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishga olib keladigan darajada buzilganda.

9.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatda to'xtatib qo'yilganda,

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomalarning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega,

- shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlarning bir shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 50% foizidan oshmasligi lozim.

- shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortganligi uchun so'mmani 5% foizi miqdorida jarima to'laydi.

- Pudratchi ob'yektni o'z vaqtida topshirish bo'yicha o'z majburiyatini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi ob'yekt shartnomaviy joriy qiymatining 50% foizidan oshmasligi lozim.

- Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

11. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

11.1 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

12.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday holatda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

12.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish uchun qanday choralar ko'rilishini yuqori tashkilotlar va tegishli mutaxassislar hamkorligida muhokama qiladilar.

13. ALOHIDA SHARTLAR.

- 13.1 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.
- 13.2 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.
- 13.3 Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

14. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

BUYURTMACHI

Nomi: Samarqand viloyati avtomobil yo'llari Bosh boshqarmasi

Manzili: Samarqand shahar, Nabiyeva ko'ch. 3-uy

Shaxsiy x/r: 304510860184017045183118001

STIR (INN) 200711637

XXTK (OKNX) 97400

Tel/faks: 234-26-08, 234-26-59

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

x/r: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi

Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1

STIR (INN): 201122919

MFO: 00014

XXTK (OKNX): 97160

Tel: 231-11-52

N.Sanaqulov



Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)


Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.



PUDRATCHI

Nomi: "Samarqandyo'lko'kalam" UK

Manzili: Samarqand sh. Rasadxona MFY
CHO'pon ota massivi

x/r: 22626000900822644002

STIR (INN) 207268447

XXTK (OKNX) 81300

Bank nomi: "O'zsanoatqurilishbank" ATB Amir Temur filiali

MFO: 00994

Imzo:

A.Radjabov



Muhr:

D.P. Ibraximova

B 528 041 D.P. 2011



"Самарқанд вилояти" УК тасарруфидан халқий аҳолининг ҳаётий аҳамиятига эга товарларнинг индекси бўлиб, Индексларнинг кўрсаткичи тақрибан 2022 йил 1 - чорақ учун жорий нархларда баҳолари жамланган

№	Харajatлар тури	Индекс рақами						Жами (мин сўм)
		4К-513 а/б	4К-505 а/б	4К-493 а/б	4К-509 а/б	4К-559 а/б	7	
1	2	3				4		
1	Ишлаб чиқаришда ишчилар учун иш хақи	19008,993	19083,418	19083,483	19083,418	2828,163	79087,475	
2	Индексация маблағи							
3	Жами иш хақи (индексация билан) (катгор 1+2)	19008,993	19083,418	19083,483	19083,418	2828,163	79087,475	
4	Жами машина ва механизмлар қиймати	7500,000	7500,000	7500,000	7500,000	1111,500	31111,500	
5	Жами материалларнинг қиймати	15000,000	15000,000	15000,000	15000,000	2221,948	62221,948	
6	Жами транспорт харажатлар 5%	750,000	750,000	750,000	750,000	111,097	3111,097	
7	Жами материал харажатлари (катгор 4+5+6)	23250,000	23250,000	23250,000	23250,000	3444,546	96444,546	
8	Индексация маблағи 9,1%							
9	Жами материал харажатлари (индексация билан) (катгор 7+8)	23250,000	23250,000	23250,000	23250,000	3444,546	96444,546	
10	Жами ишлаб чиқариш харажатлари (индексация билан) (катгор 3+9)	42258,993	42333,418	42333,483	42333,418	6272,708	175532,020	
11	Бошқа харажатлар (катгор 10*18,11%)	7653,104	7666,582	7666,594	7666,582	1135,987	31788,849	
12	Жами катгор (10+11)	49912,097	50000,000	50000,077	50000,000	7408,696	207320,869	
13	ККС 15% (катгор 12*20%)							
14	Жами ишлаб чиқариш харажатлари (индексация билан) (катгор 12+13)	49912,097	50000,000	50000,077	50000,000	7408,696	207320,869	
15	Жами ишлаб чиқариш харажатлари (индексация билан) (катгор 1+7)	42258,993	42333,418	42333,483	42333,418	6272,708	175532,020	
16	Бошқа харажатлар (катгор 15*18,11%)	7653,104	7666,582	7666,594	7666,582	1135,987	31788,849	
17	Жами катгор (15+16)	49912,097	50000,000	50000,077	50000,000	7408,696	207320,869	
18	ККС 15% (катгор 17*20%)	7486,814	7500,000	7500,012	7500,000	1111,304	31098,130	
19	Жами ишлаб чиқариш харажатлари (индексация билан) (катгор 17+18)	57398,911	57500,000	57500,089	57500,000	8520,000	238419,000	

* Давла смета хужжатлари ишлаб чиқаришдан олдин кейин аниқлик келтирилган

ИЧБ биланга:
Бош инспектор

[Signature]

У.А.Алиеванин
Ж.Рашидулов

[Signature]
[Signature]